

xususiyatlarini va individual ehtiyojlarini hisobga olish ham muhimdir¹⁹⁸ Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini joriy etishda nafaqat xorijiy muvaffaqiyatli tajribalarni o'rganish, balki ularni mahalliy sharoitga moslashtirish zarur. Kompleks yondashuv va interfaol o'qitish metodlarini qo'llash orqali fuqarolarning byudjetni rejalashtirish, sarmoya kiritish va moliyaviy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini samarali rivojlantirish mumkin. Shu tariqa, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyat farovonligini oshirishga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda moliyaviy savodxonlikning oshirilishi nafaqat individual moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki jamiyat iqtisodiy faoliyatini kengaytiradi va davlat byudjetiga tushumlarning barqarorligini mustahkamlaydi. Tadbirkorlar va fuqarolar orasida moliyaviy bilimlar oshirilsa, kichik va o'rta korxonalar samarali faoliyat yuritadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va ijtimoiy farovonlik oshadi. Xorijiy tajribalar ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli moliyaviy savodxonlik dasturlari kompleks yondashuvga, interfaol metodlarga va madaniy xususiyatlarni hisobga olishga asoslangan bo'lishi kerak. Shu bois, moliyaviy savodxonlikni erta yoshdan rivojlantirish va maktab va boshlang'ich ta'lim dasturlariga kiritish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda jamiyat farovonligini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pulatova M.B., Abdulatipova R.Sh. (2023). *Yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirishning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri. Science and Education.*
2. Azimov S. (2024). *Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishda xorij tajribasi. Qo'qon universiteti xabarnomasi*
3. Pulatova, A.D. – "Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va byudjet-soliq tizimini oqilona boshqarishdagi ustuvor masalalar". *International School of Finance Technology and Science Institute*
4. Nazarova R.R. *Aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirishning ahamiyati. Ilmiy, amaliy va ommabop jurnal.*
5. Xidirov N.G., Olqarova Z.N. (2024). *Aholi moliyaviy savodxonligi darajasining ijtimoiy hayotga ta'siri. Science and Education,*
6. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). *The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44.*

DAVLAT PENSIYA TIZIMINING MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ibragimov Shohruh Farruxovich
Bank-moliya akademiyasi, magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat pensiya ta'minoti tizimining amaldagi holati va uni takomillashtirish yo'nalishlari va O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlari va takomillashtirish yo'llari yoritib berilgan shuningdek, jahonda mavjud pensiyata'minoti tizimi, nodavlat pensiya ta'minoti tizimi keltirilgan hamda xorij tajribasini qo'llagan holda mavjud pensiya tizimidagi muammolarni bartaraf etish va takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

¹⁹⁸ Azimov S. (2024). *Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishda xorij tajribasi. Qo'qon universiteti xabarnomasi*

Kalit so'zlar: pensiya tizimi, nafaqa, pensiya tizimini moliyalashtirish, ijtimoiy sug'urta badallari, pensiya jamg'armasi, moliyaviy barqarorlik, demografik omillar, pensiya tizimi islohotlari.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimining asosiy elementlaridan biri sifatida davlat pensiya ta'minoti tizimi aholi farovonligini ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimning asosiy vazifasi fuqarolarning mehnat faoliyati yakunlanganidan keyin ham ularning ijtimoiy himoyalanganligini kafolatlashdan iborat bo'lib, bu har qanday demokratik jamiyat uchun muhim yo'nalish sanaladi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pensiya tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Shunga qaramasdan, tizimda haligacha moliyaviy barqarorlik, adolatli taqsimot, jamg'arma faoliyati, norasmiy bandlikni qamrab olish kabi masalalarda muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish mamlakatda pensiya tizimini takomillashtirish zaruratini yanada keskinlashtirmoqda. Shu boisdan bir qancha xorijiy mamlakatlar pensiya tajribalari o'rganilib O'zbekistonga joriy qilish va bu orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar ko'rib chiqilayotganligi e'tiborga molik, davlatimizning ushbu sohada amalga oshirgan ishlar va rejalashtirayotgan ishlarni tahlil qilish orqali sohani mukammal bir tizim holatiga olib chiqish mumkin va biz bu yo'lga chiqdik desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 31.10.2023 yildagi PQ-353-sonli "Aholiga pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori aynan pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni o'z ichiga oladi.¹⁹⁹

Pensiya tizimi - ijimoiy, iqtisodiy va huquqiy institutlarni birlashtiruvchi organizm bo'lib, u jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarining manfaatlarini qondirish uchun mo'ljallangan. Pensiya tizimi - bu ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordamning bir ko'rinishidir.²⁰⁰

Bugungi kunda O'zbekiston hukumati tomonidan pensiya tizimini takomillashtirish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, pensiya yoshini qayta ko'rib chiqish, ish stajini hisoblash mexanizmini soddalashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali pensiya tayinlash jarayonlarini avtomatlashtirish va shaffofligini oshirish choralari ko'rilmogda. Shuningdek, 2024 yildan boshlab yangi pensiya modeli ishlab chiqilishi va jamg'arib boriladigan pensiya tizimining bosqichma-bosqich joriy qilinishi rejalashtirilgan. Bu yondashuv fuqarolarga o'z kelajagini moliyaviy jihatdan mustahkamlash, shaxsiy pensiya jamg'armalarini shakllantirish imkonini beradi.²⁰¹

Boshqa davlatlarning tajribasiga nazar solsak, Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya singari rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimi ko'p pog'onali bo'lib, davlat pensiyasi, ish beruvchining badali va xususiy jamg'arma tizimi bir-birini to'ldiradi. Bu tizimlar fuqarolarning keksalik davrida daromadlarining sezilarli qismini yo'qotmasligini kafolatlaydi. O'zbekistonda ham shunday tizimni joriy qilish orqali davlat yuki kamaytiriladi va fuqarolarning moliyaviy

¹⁹⁹ O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent.

²⁰⁰ Tursunov.J.P., Jumabayeva.K.B. O'zbekistonda Pensiya ta'minoti tizimi: bugungi holat va rivojlanish istiqbollari// Fundamental tadqiqotlar. No 1 (2023) B. 25-33

²⁰¹ O'zbekiston Respublikasi "Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. – T.: Huquqiy axborotlar markazi, 2019

mustaqilligi oshiriladi. Ammo bu borada aholining moliyaviy savodxonligi, ishonch va tartib-intizom muhim rol o'ynaydi.²⁰²

Mamlakatimiz pensiya tizimini chuqur tahlil qilish va pensiya ta'minotining modernizatsiyalashni nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tadqiq etish ijtimoiy siyosatni manzilliligini kuchaytirishning dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

1-jadval.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotidagi ijtimoiy himoya va pensiya tizimlari²⁰³

Skandinaviya mamlakatlari	Germaniya	Yaponiya	Janubiy Koreya
Pensiya tizimi modeli			
Ko'p pog'onali pensiya tizimi	Bismark modeli asosidagi ko'p pog'onali tizim	Ikki pog'onali milliy pensiya tizimi	Ko'p pog'onali pensiya tizimi
Asosiy moliyalashtirish manbalari			
Davlat badallari, ish beruvchi badallari, shaxsiy jamg'arma hisoblari	Ish beruvchi va xodim badallari, davlat subsidiyalari, xususiy pensiya jamg'armalari	Davlat badallari, ish beruvchi va xodim badallari	Milliy pensiya jamg'armasi ish beruvchi va xodim hissalarini, xususiy jamg'armalar
Tizim xususiyatlari			
Davlat tomonidan kafolatlangan minimal pensiya mavjud, majburiy jamg'arma tizimi rivojlangan, ijtimoiy himoya darajasi yuqori	Majburiy ijtimoiy sug'urta tizimi ustuvor, davlat nazorati kuchli, qo'shimcha xususiy pensiya dasturlari mavjud	Asosiy milliy pensiya barcha fuqarolar uchun majburiy, korporativ pensiya dasturlari keng tarqalgan	Milliy pensiya tizimi bilan birga shaxsiy va korporativ pensiya dasturlari rivojlangan

Mamlakatimiz pensiya tizimini chuqur tahlil qilish va pensiya ta'minotining modernizatsiyalashni nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tadqiq etish ijtimoiy siyosatni manzilliligini kuchaytirishning dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Muammolardan yana biri – pensiya fondi mablag'larining samarali boshqarilishi. Ko'plab mutaxassislar fikricha, jamg'arma mablag'larini faqat pensiya to'lovlariga sarflash emas, balki iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga investitsiya qilish orqali ularning ko'payishini ta'minlash mumkin. Bunda, albatta, shaffoflik, samaradorlik va moliyaviy nazorat tizimlari bo'lishi lozim. Aks holda, jamg'arma mablag'larining yo'qolishi yoki noto'g'ri sarflanishi tizimga bo'lgan ishonchni butunlay izdan chiqarishi mumkin. Shuningdek, ayollar va erkaklar uchun pensiya yoshining tenglashtirilishi bo'yicha xalqaro tajribalarni inobatga olish lozim. Ayni paytda O'zbekistonda erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun esa 55 yosh pensiya yoshidir. Biroq hayot davomiyligi, sog'liqni saqlash tizimi imkoniyatlari va demografik o'zgarishlar bu yondashuvni qayta

²⁰² Jahon banki hisobotlari: "O'zbekiston pensiya tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar", 2021.

²⁰³ "Xorijiy mamlakatlar amaliyotidagi ijtimoiy himoya va pensiya tizimlari" jadvali asosida muallif ishlanmasi

ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayni chog'da, ayrim ijtimoiy qatlamlar – ko'p farzandli onalar, nogiron farzandni parvarish qilayotganlar, ekologik xavfli hududlarda yashovchilar uchun imtiyozli shartlar saqlab qolinishi ijtimoiy adolat tamoyiliga muvofiq bo'ladi.²⁰⁴

Bundan tashqari, pensiya tizimini takomillashtirishda raqamlashtirish jarayonlari muhim rol o'ynaydi. Hozirda davlat tomonidan "Pensiya" elektron platformasi ishlab chiqilgan bo'lib, fuqarolar o'z ish staji, to'lovlar, kelajakdagi pensiya miqdori haqidagi ma'lumotlarni onlayn ko'rish imkoniyatiga ega. Bu jarayon, nafaqat shaffoflikni oshiradi, balki fuqarolarning tizimga bo'lgan ishonchini ham mustahkamlaydi. Raqamli transformatsiya yordamida nafaqat ma'lumotlar aniq yuritiladi, balki byurokratik to'siqlar, navbatlar va korrupsiya holatlari kamayadi. O'zbekiston davlat pensiya tizimini takomillashtirish, shubhasiz, murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u faqat hukumat emas, balki butun jamiyat ishtirokini talab qiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda pensiya islohotlari konsepsiyasini ishlab chiqish, ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish bugungi kunda yuz berayotgan global tendensiyalar hamda mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, aholining munosib turmush darajasini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash maqsadida ushbu sohada tizimli va izchil islohotlarni amalga oshirish zarur.

Shu bilan birga, pensiya tizimini takomillashtirish jarayonida uzoq muddatli strategik yondashuvlarni ishlab chiqish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini samarali tashkil etish muhim hisoblanadi. Mazkur jarayonda davlat organlari, xususiy sektor hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish alohida ahamiyatga ega.

Natijada pensiya tizimini modernizatsiya qilish orqali nafaqat uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda aholining hayot sifatini yaxshilashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent.*
- 2. Tursunov.J.P., Jumabayeva.K.B. O'zbekistonda Pensiya ta'minoti tizimi: bugungi holat va rivojlanish istiqbollari// Fundamental tadqiqotlar. No 1 (2023) B. 25-33*
- 3. O'zbekiston Respublikasi "Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. - T.: Huquqiy axborotlar markazi, 2019*
- 4. Jahon banki hisobotlari: "O'zbekiston pensiya tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar", 2021.*
- 5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi rasmiy statistik ma'lumotlari. - Toshkent, 2024–2025.*
- 6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi. Aholi daromadlari va ijtimoiy ta'minot bo'yicha statistik to'plam. - Toshkent, 2024.*

²⁰⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi. Aholi daromadlari va ijtimoiy ta'minot bo'yicha statistik to'plam. – Toshkent, 2024